



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT SOLIQ QO'MITASI
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT SOLIQ BOSHQARMASI
AMUDARYO TUMANI
DAVLAT SOLIQ INSPEKSIYASI**

230700, Mang'it shahri, Gurlan ko'chasi, 48 uy
Tel: (61) 515-49-02, Faks (61) 515-49-02

2022 - yil "26" dekabr


19/10-06396 – son

**Xalq deputatlari Amudaryo tuman
kengashi raisi S.Yo'ldoshevga**

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 9-dekabrda 06/0434/4103-sonli xat bilan Respublika hududlarida 2023-yil uchun jismoniy va yuridik shaxslarning qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlari bo'yicha yer solig'i stavkalarining bazaviy miqdorlari belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429-moddasida Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari 0,5 dan 2,0 gacha bo'lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo'llagan holda, belgilangan bazaviy soliq stavkalari asosida qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun tuman va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, soliq stavkalarini belgilashi; tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari, ushbu modda ikkinchi qismining ikkinchi xatboshisida belgilangan soliq stavkalariga, belgilangan bazaviy soliq stavkalariga 0,7 dan 3,0 gacha bo'lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni ularning hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko'cha kesimida kiritishii belgilangan.

Shunga muvofiq Sizdan 2023-yil uchun jismoniy va yuridik shaxslarning qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlari uchun yer solig'i stavkalarini Xalq deputatlari Amudaryo tuman Kengashining navbatdagi Sessiyasida ko'rib berishingizni so'rayman.

Inspeksiya boshlig'i



A.Seitov

**Халқ депутатлари Амударё туман Кенгашининг 56-сессиясида
туман ДСИ бошлиғи Сеитов Айдос Искендеровичнинг
ҲИСОБОТИ**

Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги томонидан 2022-йил 9-декабрдаги 06/04-34/4103-сонли хат билан Республика ҳудудларида 2023-йил учун жисмоний ва юридик шахсларнинг қишлоқ хўжалигига мўлжалланмаган ерлари бўйича ер солиғи ставкаларининг базавий миқдорлари белгилаб берилган. Қорақалпоғистон Республикаси жойлашган ҳудудларга жисмоний шахслар учун 1 кв.метр **286,0** сўм, юридик шахслар учун 1 га **31,0** млн сўм белгилаб берилган.

Қорақалпоғистон Республикаси Жоқарғи Кенгаши томонидан Амударё туманига жисмоний шахсларга 1 кв.метр учун базавий ставка **207,9** сўм (шундан, туман марказига **207,9** сўм, қишлоқ жойларга **0,7** коэффициент қўлланилиб **145,53** сўм) юридик шахсларга 1 га учун базавий ставка **25 100,0** минг сўм (шундан, туман марказига **0,85** коэффициент қўлланилиб **21 335,0** минг сўм, қишлоқ жойларга **0,7** коэффициент қўлланилиб **17 570,0** сўм) ставкалари таклиф қилинган.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, туманимиз марказида жойлашган ҳудудлар (А.Навоий, Беруний, Бой овул, Бўстон, Гулзор, Дурунки, Дўстлик, Ойбек, Олмазор, Фаровон, Чордара ҳамда Янгиобод МФЙлар) учун жисмоний шахслар ер солиғига **0,95** коэффициент қўллаган ҳолда 1 кв.метр ер учун **197,5** сўм (2022 йилда **189** сўм бўлган), юридик шахслар ер солиғи учун 1 га учун **0,85** коэффициент қўлланилиб **21 335,0** сўм (2022-йилда **19 880,0** минг сўм), бошқа ҳудудлар учун **0,7** коэффициент қўллаган ҳолда жисмоний шахслар ер солиғи учун **145,53** сўм (2022-йилда **132,3** сўм бўлган), юридик шахслар ер солиғи учун 1 га учун **17 570,0** минг сўм (2022-йилда **13 916,0** минг сўм) қилиб белгилашни таклиф қиламан.

Йиллар	Жисмоний шахслар учун (сўмда)		Юридик шахслар учун (минг сўмда)	
	Туман маркази	Қишлоқ жойлар	Туман маркази	Қишлоқ жойлар
2023-йил	197,5	145,53	21 335	17 570
2022-йил	189	132,3	19 880	13 916
Фарқи	8,5	13,23	1 455	3 654

Туман ДСИ бошлиғи

 **А.Сеитов**